



## SOME NOTES ON THE ANCIENT CERAMIC PRODUCTS OF THE KHOREZM OASIS

**H.A. Palvanov**

*Teacher of the Faculty of History  
National University of Uzbekistan  
Tashkent, Uzbekistan*

---

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Khumbuztepa, Nurum, Chirmonyop, Qal'aliqir, Flyaga, Kang'yuy, Pottery wheel, Rhyton, Engob, Goblet-shaped bowl, Hand wheel, Fragment.

**Abstract:** This article discusses the characteristics of the pottery products of the Khorezm oasis of antiquity, and discusses the pottery of the Lower Amu Darya, its unique characteristics, and the stages of development in antiquity.

**Received:** 17.04.26

**Accepted:** 18.04.26

**Published:** 19.04.26

---

## XORAZM VOHASI ANTIK DAVRI KULOLCHILIK MAHSULOTLARIGA OID AYRIM MULOHAZALAR

**H.A. Palvanov**

*O'qituvchi  
O'zMU Tarix fakulteti  
Toshkent, O'zbekiston*

---

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Xumbuztepa, Nurum, Chirmonyop, Qal'aliqir, Flyaga, Qang'yuy, Kulolchilik charxi, Riton, Angob, Qadahsimon kosa, Qo'l charxi, Fragment.

**Annotatsiya:** Ushbu Maqolada Xorazm vohasi antik davri kulolchilik mahsulotlarining xususiyatlariga oid mulohazalar to'g'risida so'z yuritilib, Quyi Amudaryoning sopol buyumlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari, antik davridagi rivojlanish bosqichlari haqida to'xtalib o'tilgan.

---

## НЕКОТОРЫЕ ЗАМЕЧАНИЯ О ДРЕВНИХ КЕРАМИЧЕСКИХ ИЗДЕЛИЯХ ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА

**Х.А. Палванов**

*Преподаватель исторического факультета  
Национального университета Узбекистана*

Тошкент, Ўзбекистан

---

**О СТАТЬЕ**

---

**Ключевые слова:** Хумбузтепа, Нурум, Чирмоняп, Калаликир, Фляга, Кангьюй, Гончарный круг, Ритон, Энгоб, Чаша в форме кубка, Ручной круг, Фрагмент.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются характеристики керамических изделий древнего Хорезмского оазиса, а также керамика Нижней Амударьи, её уникальные особенности и этапы развития в древности.

---

**Kirish.** Qadimgi Xorazmda kulolchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun ixtisoslashgan manzilgohlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, shunday manzilgohlardan Amudaryoning chap sohilidagi Sariqqamish o'zani hududidagi Nurum va Xumbuztepa yodgorliklari alohida o'ringa ega.

Nurumdagi har bir qal'a-qo'rg'on atrofida ikkitadan, ayrimlarida to'rttadan kulolchilik xumdonlari, jami 50 dan ortiq xumdonlar aniqlangan. Ular katta va kichik xumdonlardan iborat. Ularga yaqin joyda ishlab chiqarish maydonchasi, tuproq aralashtirish uchun mo'ljallangan chuqurchalarning o'rni aniqlangan bo'lib, o'z davrida ularning ustini bostirma yopib turgan [1].

Boshqa bir kulolchilik ishlab chiqarish markazi Xumbuztepa manzilgohida joylashgan. Bu yerda kulolchilik ishlab chiqarish bilan bog'liq imoratlar va kulolchilik humdonlarning o'rni o'ziga xosdir. Bu manzilgoh Xorazm vohasidagi kulolchilik ishlab chiqarishi bilan bog'liq bo'lgan eng qadimgi yodgorlik hisoblanadi [2].

1939 yilda S.P. Tolstov rahbarligida Chirmonyopda ochilgan, xususan qadimgi antik shaharlar – “odamlar yashaydigan shahar” Ko'zaliqir va Qal'aliqirga genetik bog'lanib, ahamoniylar releflarida va bundan tashqari Anov III deb nomlanuvchi madaniyat kulolchiligining ayrim shakllarida tasvirlangan, ko'p jihatdan ahamoniylar davrining metalli idishlarni yodga soluvchi, yuqori qismi gorizontal qo'l charxida ishlangan idishlarning shakli xususiyatlariga ko'ra va shaharchada kulolchilik buyumlari bilan bir qatorda avvalgi davrga xos bo'lgan, skiflarning o'qlarining topilishi ularni ahamoniylar davri: miloddan avvalgi V-IV asrlar, balki VI-IV asrlar deb sanalashtirishimizga dalil bo'la oladi. Shunisi qiziqki, Norinjon yaqinidagi amirobod madaniyati makonlarida S.P. Tolstov va Ya.G'ulomovning birgalikdagi olib borgan izlanishlarida, bir qator so'nggi amirobod kulolchiligi bilan bir qatorda “odamlar yashaydigan shahar” madaniyati idishlari ham aniqlanib, o'rganildi. Bu esa bevosita amirobod madaniyatidanda rivojlanishi yuqoriroq bo'lgan “odamlar yashaydigan shahar” madaniyatiga o'tish bo'lib, o'z navbatida kulolchiligining shakli jihatidan “qang'yuy madaniyati” miloddan avvalgi IV-I asrlar kulolchiligiga bog'lanadi [3].

Ko‘zaliqirning kulolchilik idishlari oyoq va qo‘l bilan ishlatiladigan kulochilik charxi yordamida yasalgan, metallni qayta ishlash juda yuqori darajaga yetgan. Aholi dehqonchilik bilan shug‘ullangan bo‘lib, ammo ularning asosiy mashg‘loti hali ham yaylov uy chorvachiligi hisoblanardi. Ko‘zaliqirning arxeologik manbalari Sug‘d, Marg‘iyona va Janubiy Baqtriyaning komplekslari bilan bir qatorda yagona, yirik etnomadaniy mintaqaning bir turdagi madaniy qatlamni o‘zida aks ettirganligi shubhasizdir.

Otish yo‘laklaridan hamda qazilgan shurfdan olingan ashyoviy materiallar orasida miloddan avvalgi IV-III asrlarga oid yirik idishlarning parchalari borligini alohida qayd etib o‘tish zarur. Yo‘lbars tasviri tushirilgan idish parchalari shu davrga taalluqli [4].

Qo‘yqirilganqal’a qo‘lda va qo‘l charxida ishlangan, shuningdek, yangi texnikani qo‘llab, oyoq charxi bilan tayyorlangan kulolchilik tiplarining rivojlanishini juda aniq ko‘rsatib beruvchi o‘ziga xos yodgorlikdir. Qo‘sh parrakli ilk skif kamon o‘qining uchi ham birinchi marta xuddi shu yerda topilgan edi. Xuddi shu yerning o‘zida kulolchilik hunarining ma‘lum punktlarda to‘planishi va ixtisoslanishning yuzaga kelishi ochiq ko‘rinib turadi; idishlarni qo‘lda tayyorlash bilan bir qatorda, kulolchilik charxi keng qo‘llaniladi. Shu vaqtning o‘zida (taxminan eramizgacha IV—III asrlar) Xorazm janubdan oyoq charxi bilan ishlash, idishlarni bir rangli bo‘yoq bilan bezash usullarini o‘rganib oladi; shu vaqtning o‘zida qizil yoki to‘q jigarrang angob bilan idishlar sirtini kuyuq va silliq qilib bo‘yash bilan birga, qadimgi mahalliy usul idish sirtini yaltiratish usuli yana keng qo‘llanila boshlanadi[5].

S.P. Tolstov Qo‘yqirilganqal’ada 1952-1955 yillarda olib borgan tadqiqotlari natijasida qazib olingan sopol idishlarini ikki guruhga: ilk va so‘nggi qangyuy davri idishlariga ajratadi [6]. Ilk kangyuy davri miloddan avvalgi IV-II asr, so‘nggi kangyuy davri miloddan avvalgi II-I asrlarni o‘z ichiga oladi. Ilk kangyuy davriga oid sopol idishlari xilma-xil bo‘lib, ular turli ko‘rinishdagi xum va xumchalar dastasi, arslon boshini eslatuvchi uzun bo‘yli ko‘zalar, tasviriy san’at na‘munalari tushirilgan suvdon (flyaga) lar, pastki qismi ot, tuya boshini yoki grifon obrazini aks ettiruvchi sopol riton (qadah)lardan iborat.

Bu davrda sirti lak bilan yoki qalin angob qatlami bilan qoplangan, oyoqchali yoki oyoqchasiz qadahsimon kosalar va katta qalin humlar ishlab chiqarish odat tusiga kiradi. Kulolchilikning bu yangi tipi asosan qal’ada va katta uylarda uchraydi, taxminan bularda hukmron sinfga tegishli aholi yashagan bo‘lsa kerak. Bu buyumlarni ishlashda antik davrning yuqori hunarmandchilik texnikasi qo‘llanilganligi shubhasizdir [7].

Bundan ko‘rinadiki, Qo‘yqirilganqal’a antik davrda yirik hunarmandchilik markazlaridan biri bo‘lgan. Yodgorlikda qo‘lda va qo‘l charxida ishlangan, shuningdek yangi texnikani qo‘llab,

oyoq charxi bilan tayyorlangan kulolchilik tiplarining rivojlanishini juda aniq ko'rsatib beruvchi o'ziga xos yodgorlik ekanligini arxeolog Ya.G'ulomov ham o'z kitoblarida ta'kidlab o'tgan.

Antik davrda kundalik hayotda qo'llaniladigan har qanday sopol idishning sirti qizil yoki to'q jiggar rang angob bilan bo'yalgan, shuningdek idish sirtini yaltiratish maqsadida uni lak bilan sirlash jihatiga ham keng ahamiyat berilganligini ko'rish mumkin.

Angob tayyorlangan sopol mahsulotining namligida sirtini qoplash uchun mo'ljallangan keramik massa bo'lib, sopol idishlarning ba'zan yuqori yoki butunlay hamma qismi angoblangan. Shuningdek, sopol idishlariga tushirilgan turli mazmundagi syujetlar qadimiy Xorazm aholisining tasviriy san'atdan xabardor bo'lganligidan dalolat beradi.

Qo'yqirilganqal'aning markaziy gumbazi ostidan, sharq tomonidan kiraverishdagi yo'l ustidan topilgan ikkita flyagaga ayniqsa katta qiziqish uyg'otgan. Ulardan biri relefli kompozisiya bilan bezatilgan, kompozisiyaning markazida soqolli bosh bo'lib, o'ngdan va chapdan ko'rinib turadi, chetda esa grifon degan bahaybat afsonaviy mahluqning tasviri bo'lgan. Boshqa flyaga markazida olti qirrali yulduzdan iborat bo'lgan naqsh tasvirlangan. Bunday relefli kompozisiyalarning juda ko'p fragmentlari topilgan. Bundan tashqari 1950 yilda topilgan skiflarning bosh kiymini kiygan, qiya holda nayza tutib turgan chavandoz tasvirlangan relief diqqatga sazovordir [8]. Shulardan kelib chiqib Qo'yqirilganqal'adan topilgan ashyolar Xorazm terrakota skulpturalari kolleksiyasining ajoyib bebaho na'munalaridan desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Qo'yqirilganqal'a stratigrafik qatlamlarining o'rta gorizontidan miloddan avvalgi III-II asrlarga mansub metallga o'xshash ashyodan ishlangan, tubi va gardishi ikki qator bo'ylab darajalangan tova topilgan. Tova tubining o'lchamlari 18, og'iz diametri 24, balandligi 6, qo'chqor sur'atli sopining uzunligi 10 sm qilib ishlangan. Idishning tubi, sopi va gardishi doirachali chuqurchalar bilan ma'lum tartibda naqshlangan. Natijada tovaning og'zi gardishi bo'ylab 88, tub yuzasida 4,8,11 kabi 90, 45S lardan iborat darajalangan sohalar shkalalar yuzaga kelgan [9]. Tekshiruvlar topilmani quyosh soati, kalendar, olam tomonlarini ko'rsatkichi, oshxona idishi sifatida esa undan quyosh ramzi tushirilgan non, yog' kulchalar tayyorlanishida chuqurchalar bo'rtiq pishiriqlarni ortiqcha kuyib ketishidan saqlash maqsadida qilinganligini ko'rsatadi.

Amudaryo o'ng sohilidagi Qirqqizqal'a yodgorligi kangyuy davri ya'ni miloddan avvalgi IV asr milodiy I asrga tegishli. Qo'rg'ondagi qazish ishlari natijasida topib o'rganilgan sopol buyumlari ikki guruhga ajratilgan;

- Birinchi guruh, juda ko'plab topilgan, xumchalar, tuvak, devorga osiladigan xumlar, katta quloqli xumlar nok va tuvaksimon ko'rinishda usti angob bilan qoplangan. Og'zining atrofi

uchburchakli naqshlar bilan bezatilgan, xumlar vertikaliga manjetli bo'lib, qizg'ish rangda angoplanagan. Qo'yqirilganqal'a topilmalariga yaqin.

- Ikkinchi guruh, dumaloq, to'rtta quloqli xumlar bo'lib ya'ni Qo'yqirilganqal'aning miloddan avvalgi I-III asr kulolchiligiga yaqin, kulrang marmarlardan laganlar juda keng tarqalgan miloddan avvalgi IV asr milodiy I asrlargacha [10].

Ayozqal'a haqidagi arxeologik ma'lumotlarda bu joyda birinchi marta non yopiladigan tandir topilgani tilga olinadi. Shuningdek, bu qal'adagi xonalardan doimiy yonib turadigan muqaddas o'choq bilan birga xonalarni isitish uchun mo'ljallab qurilgan pech o'rinlari topilgan [11].

Bozorqal'a yodgorligida ya'ni miloddan avvalgi IV asrdan charxda (qo'l charxida) yasalgan kulolchilik idishlar asosan katta hajmdagi xumlardan iborat bo'lib, ularning devorchalari deyarli to'g'ri chiziq bo'ylab gorizantal kunguralar tushirilgan, og'zi keng va chambari jim-jimador va yassidir. Kulolchilikning bu tipi shahar ichida ham juda ko'p uchrab, ular bilan bir xildagi yorg'uchoqlar ham topildi [12]. Arxeologik qazishmalar vaqtida qal'adan Amirobod madaniyati uslubiga va undan ham ilgarigi kulolchilikka oid sopol idishlari, uning atrofidagi ikki kilometrdan ortiq keladigan katta maydondan ko'plab sopol siniqlari topilgan. Bular kulolchilik charxisiz ishlangan ancha kam uchraydigan och qizil rangli yuqori sifatli va rang-barang shaklda bo'lgan. Ayniqsa Bozorqal'a yodgorligidan topilgan idishlar boshqa qal'alarda juda ko'p uchraydigan qoramtir kulrang tusli qo'lda ishlangan har xil kulolchilik idishlaridan farq qilgan.

Xulosa qilib aytganda miloddan avvalgi IV asrdan milodiy IV asrgacha bo'lgan davrda qishloq xo'jaligi bilan bir qatorda hunarmandchilik tarmog'i ham taraqqiy etib borgan. Olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida antik davrga oid Xorazm vohasidagi yodgorliklardan ko'plab kulolchilik buyumlari topib o'rganilgan. Bu sopol buyumlarda arxaik shakllarning saqlanib qolganligini ko'rish mumkin. Nurum, Xumbuztepa, Qal'aliqir, Oybo'yirqal'a va Qo'yqirilganqal'adan topilgan kulolchilik buyumlarida ishlatilgan turli xil naqsh va shakllar, hamda bo'yoqlar alohida o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, Xorazm kulolchiligida alohida ahamiyat kasb etgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Б.И.Вайнберг., С.Б.Болелов. Нурумский оазис на западе Хорезма // Культурные ценности 1997-1998 СПб. 1999. С-50-51.
2. С.Б.Болелов. Некоторые итоги археологических работ на Хумбуз-тепе // ОНУ.№9-10. Ташкент: 1999. С-87-91.
3. Толстов.С.П. Древний Хорезм. Издание МГУ., Москва, 1948. С-68-71

4. Ғ.Ходжаниязов. Қадимги Хоразм муҳофаа иншоотлари. Тошкент: Ўзбекистон, 2007. 41-52 б.
5. Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Тошкент. 1959. 83-84 б.
6. Толстов С.П. Работы Хорезмской экспедиции АН Уз по раскопкам памятника IV-III вв до н.э. Койкрылган кала (март-май 1952г.) ВДИ. 1953.№1. С-160-161.
7. Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Тошкент. 1959. 83-84 б.
8. С.П.Толстов. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. Тошкент: 1964. 371-372 б.
9. Абдримов К., Аvezмуротов О. Қадимги Хоразм археологик ёдгорликларининг баъзи бир хусусиятлари: // Илм сарчашмалари // 2004. №1, 55-57 б.
10. Ходжаниязов Ғ. “Қырккыз-кала городище раннее античного Хорезма”, Археология Приаралья.вып. IV. С 82-91.
11. Исмоилов С. Қадимги Хоразм қалъалари. Тошкент: 2007. 39-40 б.
12. Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Тошкент. 1959. 81-82 б.